

DORIVOR RO‘YAN O‘SIMLIGI VA UNING TIBBIYOTDA VA XALQ TABOBATIDA QO‘LLANILISHI

To‘ychiyev G‘ofurjon O‘rmonovich

Andijon Davlat Tibbiyot Instituti, katta o‘qituvchi

Abduraximova Guljaxon Shoyadbek qizi

Andijon Davlat Tibbiyot Instituti Farmatsiya yo‘nalishi 3-kurs talabasu

Annotatsiya. Maqolada Ibn Sinoning "Tib qonunlari" kitobida keltirilgan dorivor o‘simliklardan biri Ro‘yandoshlar (Rubiaceae) oilasi vakili Bo‘yoqdor ro‘yan (*Rubia tinctorum* L) haqida kerakli malumotlar berilgan. Bunda o‘simlik tibbiyotda qo‘llanilishi, ahamiyati va asosiy tasir doirasi haqida malumotlar va ko‘plab izlanishlar natijalari berilgan.

Kalit so‘zlar: Tib qonunlari, ro‘yandoshlar, bo‘yoqdor ro‘yan, Ildizpoya va ildizlar, ksantopurpurin, bosh og‘rig‘i.



Butun dunyoda tibbiyot taraqqiyotiga Ibn Sino o'zining g'oyat katta ta'sirini ko'rsatgan. Insoniyatning eng muhim yodgorliklaridan hisoblangan genial asari - «Kitob al-qonun fi-t-tibb» («Tib qonunlar») kitobini yozgan. Bu asar tezlikda butun tibbiyot ahliga tanildi. «Tib qonunlari» ikkinchi kitobida dorivor vositalarga bag'ishlangan 810 maqola bo'lib, uning 537 tasida dorivor o'simliklar va ulardan olingan mahsulotlar tasvirlangan. Xalq tabobati va an'anaviy tibbiyotni asosiy dorivor vositalari

dorivor o'simliklar bo'lgan. Bu holat qadimgi zamonlardan hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda. Hozir ham tabiblarning asosiy davolovchi vositasi dorivor o'simliklardir. Shu jumladan Bo'yoqdor ro'yanning ham o'ziga hos hususiyatlari mavjud [3].



O'simlik nomi: Bo'yoqdor ro'yan-Rubia tinctorum. Ro'yandoshlar-Rubiaceae oilasi vakili. Ro'yan 2 ta turi bor. O'simlik ko'p yillik, bo'yi 30-150 sm gacha bo'lgan o't o'simlik. Ildizpoyasi uzun, sudralib o'suvchi, shoxlangan, silindrsimon, yo'g'on, bo'g'inli, ko'p boshli. Poyasi bir nechta, to'rt qirrali, bo'g'inli, sershox va ilmoqli dag'al tuklar bilan qoplangan. Bargi lansetsimon-tuxumsimon, yaltiroq, pastki tomonidagi yo'g'on tomirlari ilmoqli dag'al tuklar bilan qoplangan, juda ham qisqa bandi bilan poyada 4-6tadan to'p-to'p bo'lub joylashgan. Gullari mayda, yashil-sariq rangli, barg qo'ltig'idan o'sib chiqqan yarim soyabonga to'planib, ro'vaksimon gul to'plamini tashkil etadi. Mevasi - 1-2 urug'i, sharsimon, oldin qizil, keyinchalik qora rangga aylanuvchi sershira ho'l meva. Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi - avgust-sentabrda pishadi [1].

Geografik tarqalishi: Ro'yanning vatani O'rta Yer dengiz mamlakatlari. Ukraina, Moldova, Rossiyaning Ovrupo qismining janubida, janubi-sharqida, Kavkazda (Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston, Dog'istonda) va O'rta Osiyoda uchraydi. Asosan, ariq bo'ylarida, but alar orasida, kanallar bo'yida, dalalar va bog'larda o'sadi. Ro'yan plantatsiyalarda o'stiriladi. Mahsulot, asosan, Dog'istonda, Ozarbayjonning shimoli-sharqiy qismida va Chechen-Ingushetiyada tayyorlanadi [2].

Mahsulotni tayyorlash. Ildizpoya va ildizlar bahorda yoki kuzda kavlab olinadi, tuproqdan, poya qoldiqlaridan hamda zararlangan qismlardan tozalab, ochiq havoda yoki quritkichlarda 45-50°C da quritiladi. Ro'yan o'simligi tabiiy o'sish joyida yo'q bo'lib ketmasligi uchun mahsulot kavlab olingan yerda qayta tayyorlash uchun 3 yildan so'ng ruxsat etiladi [5].



Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot ildizpoya va ildiz bo'lakchalaridan iborat. Ildizpoya bo'lakchalarining yo'g'onligi 2-18 mm, ustki tomoni qizg'ish-qo'ng'ir rangga bo'yalgan. Uni ko'ndalangiga kesganda po'stloq qavati qizil-qo'ng'ir, yog'och qismi esa qizil rangda ko'rinadi. Mahsulotning o'ziga xos kuchsiz hidi, oldin shirinroq, keyin bir oz burishtiruvchi va achchiqroq mazasi bor. Ildizpoya suvni qo'ng'ir-qizil rangga bo'yaydi [1].

Kimyoviy tarkibi. Ildizpoya tarkibida 5-6 foizgacha antratsen unumlari (alizarin, ruberitrin kislota, galiozin, purpurin, ksantopurpurin, psevdopurpurin, rubiadin-glukozid, munistin, lutsidin, iberitsin va boshqalar) bo'ladi. Ruberitrin kislota glikozid bo'lib, gidrolizlanganda alizarin aglikoni va primveroza (o'z navbatida ksiloza va glukoza qandlardan tashkil topgan) disaxaridiga parchalanadi. Ildizpoyada antratsen unumlaridan tashqari 15 foizgacha qandlar, pektin modda hamda limon, olma, vino kislotalari bor [6].



Ishlatilishi. Ibn Sino ro‘yan ildizidan tayyorlangan qaynatmani jigar va qora jigar kasalliklarida hamda siydik haydovchi dori sifatida qo‘llagan. Xalq tabobatida ro‘yan ildizidan tayyorlangan qaynatma yoki damlama buyrak va o‘t yo‘llaridagi toshlarni tushirish uchun podagra kasalligini davolashda va siydik haydovchi dori sifatida ishlatiladi. Ro‘yan ildizi siydik haydash va spazmolitik og‘riqlarni qoldirish tasiriga ega. Ildizidan tayyorlangan quruq ekstrakt ilmiy tibbiyotda buyrak, qovuq va siydik yo‘llaridagi toshlarni tushirish uchun ishlatiladi [7].

•Bosh og‘rig‘ida—ildizi asal bilan qaynatib ichilsa, bosh og‘rig‘i qoladi. •Buyrak-tosh kasalligida—ildizini maydalab ezib, bir osh qoshig‘i ustiga bir stakan qaynoq suv quyiladi. Sakkis soat tindirib quyilgach, suzib olinadi. Kuniga uch mahal yarim stakanda ovqatdan oldin ichiladi. •Bo‘g‘imlar yallig‘lanishida—ildizidan ikki osh qoshig‘ini idishga solib, ustiga ikki stakan suv quyib, past olovda og‘zi yopiq holda yarim soat qaynatiladi. Dokadan suzilgach, kun davomida oz-ozdan quymuch artritida ichiladi. •Siydik tutilishida—tolqonidan bir osh qoshiqdan o‘n kun uch mahaldan yutilsa, siydikni kuchli ravishda haydaydi, siydik yo‘lini ravon qiladi [4].

Dorivor o‘simliklar va ulardan olinadigan preparatlarga tibbiyotda kelajakda talabni yanada oshirishga asosiy sabablardan biri sintez yo‘li bilan olingan har bir kimyoviy dorivor preparatni uzoq vaqt uzluksiz ravishda iste‘mol qilish inson va hayvonlar organizmida turli ko‘ngilsiz o‘zgarishlarga olib kelishidir. Shunga ko‘ra oxirgi vaqtlarda butun dunyoda o‘simlik dorivor preparatlariga—fitopreparatlarga va dorivor o‘simliklarga ehtiyoj ko‘paymoqda [7].

O‘zbekistonda Respublika dorivor o‘simliklarini o‘rganish, ularning zaxirasini aniqlash, tayyorlash, o‘stirish va xorijiy mamlakatlardan keltirilgan turlarini ekib ko‘paytirish ishlari keng ko‘lamda olib borilmoqda. Yangi dorivor o‘simliklarni topishda xalq tabobatida ishlatiladigan dorivor mahsulotlarni o‘rganish, o‘simliklarni filogenetik qardoshligidan foydalanish bilan bir qatorda ma‘lum tuman florasini yalpi kimyoviy tahlil qilish ham katta ahamiyatga ega [2].

Xulosa qilib aytganda, insoniyat rivojlangan davrlardan boshlab farmasevtika sohasi ham rivojlanib borgan. Hozirgi davrda esa sintetik dorilardan ko‘ra tabiiy vositalarga talab oshmoqda. Shifobaxsh o‘simliklardan biologik faol qo‘shimchalar, damlamalar, qaynatmalar, malhamlar, shifobaxsh choylar va yig‘ma choylar ishlab chiqilmoqda. Ularni sanoat miqyosida ishlab chiqarishni samarali yo‘lga qo‘yish, har hil yondosh moddalardan tozalash, substansiyalar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish nazarda tutilmoqda. Bunda albatta sifat nazoratiga etibor berishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.X. Xolmatov, O‘. A. Ahmedov. Farmakognoziya 2-qism. 130-160-betlar
2. O‘. Ahmedov, A. Ergashev, A.Abzalov, M.Yulchiyeva, D.Mustafakulov Dorivor O‘simliklarni Yetishtirish va Ekologiyasi "Tashakkur-bo‘stoni" nashiryoti Toshkent – 2018.y
3. Xolmatov X. X, Xabibov Z. X. O‘zbekistonning shifobaxsh o‘simliklari. T.: Ibn Sino nashr. 1991.
4. Asrorov A. Tabobat olami-kasalliklar va ularni davolash usullari. Toshkent: noshir, 2012.
5. Большая энциклопедия народной медицины (Сост. А. Ф. Конев, Л. С. Конева) минск: Современный литератор, 1963.
6. Лекарственные растения Ташкентской области. (Сост. Г. П. Пулатова, Х. Х. Холматов, И. Н. Джураев). Ташкент: Медицина, 1980.
7. I. Asqarov, Tabobat qomusi.«Mumtoz so‘z», 2019